

## TARIXIY DIGNITONIM VA FALERONIMLARNING LISONIY TADQIQI

**Xusanova Maksuda Nishonovna**

Renessans ta'lim universiteti tadqiqotchisi.

**Annotatsiya:** Maqolada tarixiy merosimizning bir bo'lagi bo'lgan dignitonim va faleronimlar o'z davrda faol qo'llanib, bugungi kunda arxaizmga aylanganini hamda ularning lisoniy tadqiqi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** orden, medal, unvon, madaniy boyluk, imtiyoz, rag'batlantirish, bitiktosh.

**Аннотация:** В статье dignitonимы и faleronимы, являющиеся частью нашего исторического наследия, активно использовались в свое время и сегодня стали архаизмами, а также изучается их лингвистическое исследование.

**Ключевые слова:** орден, медаль, звание, культурные ценности, льгота, поощрение, надпись.

**Annotation:** In the article, dignitonyms and faleronyms, which are a part of our heritage, were actively used in their time, archaism today, and document linguistic research.

**Keywords:** order, medal, title, cultural property, benefit, rag treatment, epitaph.

Milliy tilimizning bebaho boyligi bo'lgan onomastik so'zlarni, xususan, dignitonim (davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan ta'sis qilingan unvonlar)lar va faleronim (orden,medal) nomlarining shakllanishi va ma'nolarining talqini hamda ilmiy onomastik tahliliga jiddiy e'tibor qaratish lozimki, ular ham tarixiy merosimizning bir bo'lagidir. Zero, "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir".[1.Мирзиёев Ш.М. 2017.29]

Har qanday xalq tarixida muayan tarixiy qimmatga ega bo'lgan unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvon), orden, medal va mukofotlarning nomlari)lar ta'sis etilgan va ular ma'lum davrda ijtimoiy ehtiyoj tufayli faol qo'llangan hamda bugungi kunda ham ishlatilmoqda. Unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvon), orden, medal va mukofotlarning nomlariga mavjud voqelik, ijtimoiy talablar doirasida narsalar, voqea-hodisalarning mazmunidan kelib chiqib maxsus nomlar beriladi. Mana shu nomlar ya'ni unvon , mansablar onomastikada dignitonim(davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan ta'sis qilingan unvonlar) va medal ,orden, mukofot, ko'krak nishonlari faleronimlar deb yuritiladi. Demak, insonning aqliy, g'oyaviy, badiiy madaniy, ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida shakllangan hamda ta'sis etilgan unvon, orden, medal va mukofotlarning nomlari atoqli otlardir. Mana shuning uchun ham unvon(faxriy, diniy va ilmiy unvon), orden, medal va mukofotlarning nomlari sanaladigan dignitonim va faleronimlarning tarixiy-qiyosiy tadqiqiga zaruriyat sezilmoqda.

Tarixiy va zamonaviy mazmundagi unvon, orden, medal hamda mukofotlarning nomlarida milliy va umumiy insoniy qadriyat an'analar va urf-odatlar o'z ifodasini topgan. Shu qadimiy an'analar, urf-odatlar dignitonim va faleronimlarning mazmun-mohiyatida bo'lgani uchun nomi xalqning ma'naviy meros, madaniy boyluk, tilning o'ziga xosligini ma'lum darajada saqlagan qadimiy xususiyatlarini saqlab qolgan tarixiy yodgorliklardir .

Biz badiiy asarlarimiz orqali xalq tomonidan e'tirof etilgan quyidagi tarixiy dignitonimlarni ko'p uchratish mumkin: aqli, dono va bilimli kishi, shoirlarning odam otasi bo'lgan Rudakiy "*Odam ush-shuaro*", XII asrning Yusuf degan so'z san'atkori "*Xos Hojib*" (eshik og'asi), Amir Temur "*Sohibqiron*", Ahmad Yassaviy "*Shayx ul mashoyix*", "*Sulton ul orifin*" (oriflar sultoni), "*Karomatlar xazinasi*", Husayn Bayqaro esa "*Karim ul tarafayin*", Alisher Navoiy esa "*Nizomiddin Mir Alisher*" va "G'azal mulkinging sultoni", "*Manzuri shohonshohi Xuroson*" kabi unvonlari.

Shad — dignitonimlar yaratilishining ilk bosqichiga V-VII asrlarda bitilgan O'rxun — Enasoy obidalari borib taqaladi. Bu yodgorliklar qadimgi turk tili va yozuvi bilan tarixiydir.

To'nyuquq bitiktoshda ,sarkarda , maslahatchi To'nyuquq "shad" unvoni olganini ta'kidlab o'tadi. Yetti yuz kishini birlashtirgani boshliqqa "shad" unvonini beradi. Shuningdek,ushbu bitigtoshlarda bag- bek, at- unvon, yuz basi-yuz boshi, bas –boshliq, rahbar, qan- xoqon, apatarqan –bosh qo'mondon kabi ma'nolarda unvon va mansablar qo'llangan .

Xotun -zodagon ayol. Mazkur so'z qadimgi turkiy tillarda, xususan, Enasoy bitiktoshlarida ham qo'llanib, "xonim", " obro'li kishining xotini ma'nosini anglatadi [2.Малов С.Е.1952.442].” At-tufha” da bu so'z "xonim", "xonim afandi" tarzda berilgan[3. O'rozboyev A.2021, 73 ].Tilning taraqqiyoti natijasida bu so'z ayol kishi , uy bekasi , erkak kishining (jufti) ma'nolarini bildirgan. Qotin so'zi fonetik o'zgarishlar oqibatida qotin so'zi "xotun" tarzda aytilgan va yozilgan. Qatun/xatun so'zlari "malika","ayol, xotin kishi " ma'nolarida keng qo'llangan. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi "asarida "malika " ma'nosida ishlatilgan. Turkon xotun,vazir Nasiriddin va bu yerda bo'lgan har bir kishi pastga tushishga majbur bo'ldi.[4.Мирзо Улуғбек.1994.154]

„Shayx ar-Rais“ — Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy olim, tabib va faylasuf bo'lib, 980-yili Buxoro yaqinida Afshona qishlog'ida tavallud topgan. Xalq tomonidan „Shayx ar-Rais“ („donishmandlar sardori, allomalar raisi“) unvonini beriladi. Islomiy davlatlarda olimlar, diniy faqihlarga berilgan unvon. Keyinchalik taniqli so'fiylar , pirlarga nisbatan ham ishlatilgan. G'arbda esa Avitsenna nomi bilan mashhur.

Inson borki, qilgan kashfiyotlari, mehnatlarini, ixtirolarini omma oldiga rag'batlantirishini istaydi. U bir zamonni, davrni o'z faleronimlari mavjud. Davr o'zgarishi bilan eskirib, yangi faleronimlar paydo bo'ladi. Inqilobdan keyin insonlarni turli jabhalardagi faoliyatini rag'batlantirish maqsadida quyidagi orden va medallar tasis etilgan: "Mehnat Qizil bayroq " ordeni , "Xalqlar do'stligi" ordeni , "Qahramon ona" , "Qizil yulduz" ordeni, "Sharafli mehnatlari uchun" , "Onalik shuhrati" medali, "Besh yillik zarbdori " medali kabilar. "Qahramon ona" ordeni sobiq SSSRda 1944-yilda, demografik inqirozning oldini olish maqsadida ta'sis etilgan bo'lib, 10 yoki undan ko'proq bolani dunyoga keltirgan onalar o'ninchi farzandi 1 yoshga to'lgan va qolgan bolalari hayot bo'lgan taqdirda mazkur orden bilan taqdirlangan. Mukofot egalari qator imtiyozlar joriy etilgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir davrda insonlarni rag'batlantirish ehtiyoj sezilgan.Dignitonim va faleronimlar esa davr o'zgarishi bilan o'zgarib borgan, ya'ni eskisini o'rniga yangisi yaratilgan.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Пжилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.29

2. Малов С.Е.Энисейская письменност тюрков.-М.-Л., 1952.-С.442
3. О‘rozboyev А.Оgahiy tarixiy asarlari leksikasi.-Toshkent.2021 - 73 b
4. Мирзо Улуғбек.Тўрт улус тарихи.-Тошкент.1994.Б-15.